

Ulotriks masalalari

1. Ulotriksni izogametalari va zoosporalari birgalikda 1100 taga teng, ulardagi xivchinlar soni 3280 ta bo'lsa, shu ulotriks jinsiy ko'payganda izogametalarni 75% i urug'lanishda qatnasha va xosil bo'lgan zigotalarni 50% i dan nechta yangi ulotriks ipi xosil bo'ladi?
A) 420 ta B) 840 ta C) 405 ta D) 810 ta
2. Ulotriksning jinsiy va jinsiz ko'payishi natijasida jami 144 ta ulotriks ipi hosil bo'ldi. Jinsiz ko'payishdagi zoosporalar jinsiy ko'payishdagi zigotalardan 2 barobar kam. Jinsiy ko'payishdan hosil bo'lgan ulotriks iplari soni?
A) 16 B) 32 C) 64 D) 128
3. Ulotriksning zoosporalari va izogametalarni umumiy soni 1200 tani tashkil qiladi. Undagi xivchinlarni umumiy soni esa, 3600 tani tashkil qiladi. Ulotriks jinsiy ko'payganda, izogametalarning 80 % urug'lanishda ishtirok etsa, hosil bo'lgan zigotalarning 80 % idan nechta yangi ulotriks ipi hosil bo'ladi.
A) 1536 B) 896 C) 768 D) 1200
4. Ulotriksning ko'payishida 64 ta ikki xivchinli va 16 ta 4 xivchinli hujayralar hosil bo'ldi. Shulardan nechta yangi organism rivojlanishini aniqlang .
A) 144 B) 272 C) 80 D) 96
5. Ulotriks jinsiy va jinsiz ko'payishida 4000 ta xivchin ishtirok etdi va bunda umumiy 2500 ta ulotriks hosil bo'ldi . Shu jarayonda ishtirok etgan zoospora va izogametalarning sonining farqini toping !
A) 500 B) 1000 C) 400 D)2000
6. Ulotriks ipidagi hujayralarni 5 tasi 3 marta, 3 tasi 5 marta, 4 tasida 4 marta bo'linish kuzatilsa u xolda jami nechta va necha xil zoospora xosil bo'ladi
A) 56 ta va 3 xil B) 56 ta va 12 xil
C) 200 ta va 3 xil D) 160 va 3 xil
7. Ulotriksni jinsiy ko'patganda xosil bo'lgan gametalardagi umumiy xivchinlar soni xosil bo'lgan zigotalarga nisbatan 7 barobar ko'p bo'lsa u xolda gametalarni necha % urug'lanishda qatnashmagan ?
A) 55 B) 40 C) 57 D) 61
8. Ulotriks jinsiy va jinsiz ko'payadi. Bunda xosil bo'lgan zoosporalar va gametalarning soni teng bo'lib, ipi xosil bo'lishi uchun hujayradan tushib ketgan xivchinlar soni 480 tani tashkil qilsa u xolda jinsiy ko'payish natijasida xosil bo'lgan iplar soni zoosporalardan xosil bo'lgan iplarga nisbatan qanchaga farq qilishini aniqlang.
A) 160 B) 220 C) 80 D) 60
9. Ulotriks jinsiz va jinsiy ko'payib yangi 400 ta o'simlik hosil qildi. Shu ulotriksni ko'payishda ishtirok etgan teng katalikdagi xivchinli hujayralar soni 80 ta bo'lsa u xolda shu ulotriksni nechta hujayrasi jinsiz usulda bo'lingan. (jinsiz ko'payishda har bir hujayrada 4 martadan mitoz kechgan deb hisoblanasin)
A) 15 B) 240 C) 8 D) 12
10. Akvariumda xlomidamonada, ulotriks va yashil evglena organizmlari bo'lib, ularga to'g'ri keluvchi xivchinlarni umumiy soni 6400 ta. Xivchinlarni 1200 tasi xlomidamonada suv o'tiga to'g'ri keladi. Yashil evglena organizmiga to'g'ri keluvchi xivchilar soni, xlomidamonada suv o'tiga to'g'ri keluvchi xivchilar soni 1,4 marta ko'p. Ulotriks suv o'tiga to'g'ri keluvchi xivchinlarni uning izogametalariga to'g'ri kelsa akvariumda ulotriksning zoosporalarini sonini aniqlang .
A) 3520 B) 440 C) 880 D) 1760
11. Ulotriksni jinsiy ko'payishida 256 ta gameta hosil bo'lgan bo'lsa, shu gametaning 25% dan zigota hosil bo'lgan zigotaning 50% dan ulotriks iplari hosil bo'ldi. Qancha ulotriks iplari hosil bo'lgan?
A) 64 B) 32 C) 128 D) 16
12. Ulotriksni jinsiy ko'payishi natijasida ulotriks iplari hosil bo'ldi. Agar ulotriks iplari zigotaning maksimal bo'linishiga va minimal bo'linishidan 1,5 marta katta bo'lgan soniga teng bo'lsa, ulotriks iplari hosil qilishda qatnashgan gametalarning sonini aniqlang.
A) 28 B) 32 C) 64 D) 16
13. Ulotriksning jinsiy va jinsiz ko'payishi natijasida 324 ta yangi ulotriks ipi hosil bo'ldi. Ko'payish jarayonidagi zoosporalar va gametalarning nisbati 1 : 4 bo'lsa, jinsiz ko'payish natijasida nechta yangi ulotriks ipi hosil bo'ladi?
A) 216 ta B) 72 ta C) 36 ta D) 108 ta
14. Ulotriksning jinsiy va jinsiz ko'payishi natijasida 144 ta yangi ulotriks ipi hosil bo'ldi. Ko'payish jarayonidagi gametalarning va zoosporalarning nisbati 1 : 4 bo'lsa, jinsiz ko'payish natijasida nechta yangi ulotriks ipi hosil bo'ladi?
A) 32 ta B) 16 ta C) 48 ta D) 96 ta
15. Ulotriksning jinsiy va jinsiz ko'payishi natijasida 175 ta yangi ulotriks ipi hosil bo'ldi. Ko'payish jarayonidagi gametalarning va zoosporalarning nisbati 1 : 3 bo'lsa, jinsiy ko'payish natijasida nechta yangi ulotriks ipi hosil bo'ladi?
A) 70 ta B) 150 ta C) 75 ta D) 140 ta
16. Ulotriksning izogametalari va zoosporalarini umumiy soni 1200 tani tashkil etadi. Undagi xivchinlarni umumiy soni esa, 3600 tani tashkil qiladi. Jinsiy ko'payganda hosil bo'lgan ulotriks iplarini hisoblang.
(zigotadan ulotriks ipini hosil bo'lish unumi 50 %)
A) 300 ta B) 600 ta C) 1200 ta D) 900 ta
17. Ulotriksning zoosporalari va izogametalarni umumiy soni 1200 tani tashkil etadi. Undagi xivchinlarni umumiy soni esa, 3800 tani tashkil qiladi. Ulotriks jinsiy ko'payganda, izogametalarning 80 % urug'lanishda ishtirok etsa, hosil bo'lgan zigotalardan nechta yangi ulotriks ipi hosil bo'ladi. (Zigotadan ulotriks iplari hosil bo'lish unumi 80%)
A) 896 ta B) 640 ta C) 1120 ta D) 800 ta
18. Chuchuk suv havzasidagi ulotriks jinsiz va jinsiy ko'payishga kirishdi. Natijada 360 ta zoospora va gameta hosil bo'ldi. Ularning 30% ini to'rt xivchinli hujayralar tashkil etadi. Urug' va tuxum hujayralar nisbati teng ekanligi hisobga olinsa, yaqin orada nechta yangi ulotriks ipi hosil bo'ladi?
A) 612 B) 306 C) 1224 D) 256
19. Ulotriksda hosil bo'lgan gametaning 40% idan zigota, zigotaning 25% idan ulotriksning 256 ta yangi ipi hosil bo'lgan bo'lsa, jami gametalarning sonini aniqlang?
A) 256 B) 512 C) 1024 D) 1280
20. Ulotriks jinsiy ko'payganda zigotalarning 25% qismi nobud bo'lib, 96 ta izogameta ishtirok etgan bo'lsa, hosil bo'lgan ulotriks iplar sonini aniqlang?
A) 144 B) 72 C) 24 D) 288

Tuzuvchi: Nuriddinov Amriddin
Bilim olish dengizida suzishga o'xshaydi—
harakatdan to'xtasang cho'kib ketasan. N.A.N